



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

JAMIYAT TARAQQIYOTIDA INNOVATSIYALAR ROLI VA AHAMIYATINING IJTIMOYIY-FALSAFIY MOHIYATI

Saitqosimov Akbar

Jizzax davlat pedagogika universiteti, professor

Annotatsiya

Mazkur maqolada jamiyat taraqqiyotida innovatsiyalar roli va ahamiyatining ijtimoiy-falsafiy mohiyati, zamonaviy sharoitda dunyoda modernizatsiya va innovatsion rivojlanish tendensiyalari, shuningdek, innovatsion jarayonlar inson farovonligi mezon sifatida maydonga kelishi borasida ilmiy masalalar yoritilgan.

Kalit soʻzlar. Jamiyat, taraqqiyot, innovatsiya, ijtimoiy hayot, ijtimoiy rivojlanish, modernizatsiya, innovatsion rivojlanish, inson farovonligi, innovatsion jarayonlar.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ СУЩНОСТЬ РОЛИ И ЗНАЧЕНИЯ ИННОВАЦИЙ В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА

Сайткасимов Акбар

Джизакский государственный педагогический университет, профессор

Аннотация

В данной статье рассматриваются социально-философская сущность роли и значения инноваций в развитии общества, тенденции модернизации и инновационного развития в современном мире, а также возникновение инновационных процессов как критерия благополучия человека.

Ключевые слова: Общество, развитие, инновация, общественная жизнь, социальное развитие, модернизация, инновационное развитие, благополучие человека, инновационные процессы.

THE SOCIO-PHILOSOPHICAL ESSENCE OF THE ROLE AND IMPORTANCE OF INNOVATION IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY

Saitkasimov Akbar

Jizzakh State Pedagogical University, Professor

Abstract

This article examines the socio-philosophical essence of the role and importance of innovation in the development of society, trends in modernization and innovative development in the modern world, and the emergence of innovative processes as a criterion for human well-being.

Keywords: Society, development, innovation, public life, social development, modernization, innovative development, human well-being, innovative processes.

Zamonaviy dunyoda taraqqiyotning hozirgi bosqichida modernizatsiya va innovatsion rivojlanish tamoyillari yuksak darajaga koʻtarildi. XXI asrda innovatsion jarayonlar ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida maydonga chiqdi. Jahonda iqtisodiy jarayonlar va munosabatlarning globalashuvi, raqobatning kuchayishi sharoitida innovatsiyalar oqimi va koʻlami tobora kengayib, jamiyat hamda inson manfaatlari va ehtiyojlarining taʼminlanishiga salmoqli taʼsir koʻrsatmoqda. Xalqaro amaliyotda ijtimoiy hayotning barcha sohalarini innovatsion asosda rivojlantirish farovon jamiyat barpo etishning muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon esa insonlarning innovatsion salohiyati va qobiliyati darajasi bilan chambarchas bogʻliqdir. Jamiyatda makon va zamon taqozosiga koʻra turli ehtiyojlar hamda manfaatlarni anglashda ong, jumladan, innovatsion ong muhim oʻrin tutadi va u jamiyat asosi hisoblangan madaniy borliqda gnoseologik funksiyani bajaradi. Ijtimoiy hayotning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy tizimlarini innovatsiyalash, yaʼni ularga

yangicha qiyofa berish, yangiliklar kiritish va zamonaviy ko‘lam bag‘ishlash bilan bog‘liq qonuniyatlar to‘g‘risida ilgari surilgan metodologik g‘oyalar ana shu gnoseologik asos tizimida muvofiqlashtiruvchi qoidalar sifatida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy makondagi innovatsion jarayonlar insonlarning zamonaviy bilimlari, ijodiy tashabbuslari va yaratuvchanlik faolligi natijasidir.

Ijtimoiy taraqqiyotda muhim o‘rin tutadigan asosiy mezonlardan biri bo‘lgan innovatsiyalar insonning turmush tarzi va hayot mazmunini ijobiy, zamon talablariga muvofiq o‘zgartirishga qodir bo‘lib, makon va zamon nuqtayi nazaridan doimiy takomillashib boradigan progressiv xususiyatga ega jarayondir. Tadqiqotchilarning fikricha, “innovatsiya va innovatsion rivojlanish mavzusini falsafiy mushohada qilish, uni ilmiy jihatdan umumlashtirish uning inson va jamiyat hayotidagi ko‘rinishi, roli va ahamiyatini ifodalashga xizmat qiladi. Bu ehtiyoj yana shu bilan izohlanadiki, innovatsiyalarni tushuntirish, uning ijtimoiy hayotdagi funksiyalarini ochib berishda turli yondashuvlarning vujudga kelishini yanada kuchaytiradi” [1, 45-b.].

Ana shunday shart-sharoitlarda jamiyatda innovatsion faoliyat imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan izlanishlar muhim rol o‘ynaydi. Bu innovatsion izlanishlar jamiyat va inson takomili uchun o‘ziga xos vosita vazifasini bajaradi. Natijada inson ijtimoiy taraqqiyot mezonini tashkil etuvchi o‘zgarishlar va yangilanishlarning asosiy ishtirokchisiga aylanadi. Shu bilan birga, davlat organlari, jamiyat institutlari, iqtisodiy tuzilmalar hamda insonlarning innovatsion hamkorlik asosida faoliyat yuritishiga ehtiyoj ortadi. Pirovardida jamiyatda ijtimoiy barqarorlik ta‘minlanadi. Ijtimoiy barqarorlik tamoyillari esa, o‘z navbatida, inson va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning uzviy takomiliga xizmat qiladi.

“Innovatsiya” tushunchasi jamiyatning barcha sohalarida, inson hayot faoliyatining barcha qirralarida uchraydi. Ilmiy tadqiqotlarning natijasi, salmog‘i va hayotiy amaliyotidan kelib chiqib, innovatsiyalar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga juda katta hissa qo‘shadi. Innovatsiyalar yangi bilimlarning yaratilishi, ularning amaliyotga joriy etilishi va samara darajasining namoyon bo‘lishi ketma-ketligida yuzaga chiqadi. Bu esa yangicha sharoitda inson hayotiy faoliyati uchun zamonaviy ko‘lamdagi shart-sharoitlar yaratilishiga xizmat qiladi. N. Shindinaning fikricha, “fuqarolarning farovonligi har qanday davlatda o‘sha jamiyatdagi innovatsion rivojlanishga bevosita bog‘liqdir” [2, 76-b.]. Zero, rivojlangan davlatlarda ichki milliy mahsulotning 90 foizi yangi bilimlar va innovatsion texnologiyalar ulushiga to‘g‘ri keladi.

Darhaqiqat, jamiyatda innovatsiyalarning yaratilishi, joriy etilishi va takomillashtirilishi innovatsion faoliyatni vujudga keltiradi. Innovatsion faoliyat juda ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, bunda “inson — ilmiy jarayon — innovatsiya” faoliyati ketma-ketligidagi tizim shakllanadi. Aynan shu tizim orqali yakuniy innovatsiyalar vujudga keladi va hayotga tatbiq etiladi. Tadqiqotchilarning ta‘kidlashicha, “innovatsion jarayonlarning tizimli xarakterga ega ekanligi uning maqsadga yo‘naltirilganligi bilan ham bog‘liq bo‘ladi, shuning uchun innovatsion jarayonlarning barcha tarkibiy qismlari manfaatlar muvozanati va taraqqiyotning umumiy rivojlanish dinamikasini aniqlaydi” [3, 5-b.]. Shuningdek, bu jarayon natijasida jamiyatda istiqbolga yo‘naltirilgan yangicha an‘analarga vujudga keladi, uning barqaror rivojlanishi ta‘minlanadi hamda ijtimoiy hayotning barcha tizimlarining innovatsion rivojlanish xususiyatlari belgilab olinadi. Innovatsion jarayon davomli va ketma-ket asosda rivojlanib boradigan hodisa bo‘lib, vaqt o‘tgan sari yangi natijalarni namoyon etadi. J. Yaxshilikovning fikricha, “innovatsiya — bu jamiyat hayot faoliyati sohalariga yangilik kiritish, ya‘ni kiritilgan yangilik, ixtiro ma‘nosini anglatadi, tizimli, yaxlit va davomli bo‘ladi, ma‘lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, insonning faoliyati to‘liq yangilanadi, moddiy va ma‘naviy ishlab chiqarishda yangi sifat natijalariga erishiladi, mehnat faoliyatidagi amaliyot natijalarining o‘zi ham yangilanib boradi” [4, 550-b.].

Innovatsiyalar jamiyat hayotining barcha sohalarida qo‘llanilib, uni rivojlantirishga xizmat qiladi. U mazmuni, ko‘lami va maqsadidan kelib chiqib, quyidagi jarayonlarni o‘z ichiga oladi:

- to‘liq yoki qisman intellektual faoliyatda tegishli natijalar bilan qo‘llaniladi;
- qonuniy ravishda muayyan ilmiy ishlanmalar va mahsulotlar yaratilishiga xizmat qiladi;
- xalqaro standartlarga mos bo‘lgan sifatli tovarlar ishlab chiqaradi va xizmatlar ko‘rsatadi;
- mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish tizimida katta samaradorlikka erishiladi.

Innovatsion jarayonlar va ularning xususiyatlari haqida so‘z borganda, ularning samarasi va yuqori sur‘atlardagi ijtimoiy amaliyoti haqida ham to‘xtalish lozim. Innovatsiya samarasi jamiyat ishlab chiqarishining mavjud holati, millatning ma‘naviy qiyofasi, ma‘rifiy va intellektual darajasi, axloqiy fazilatlarini, jismoniy va aqliy qobiliyatlari, yaratuvchanlik salohiyati hamda ijtimoiy tashabbuslari bilan bog‘liqdir. Innovatsion rivojlanishda jamiyatda inson omili, uning qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish jarayonlarining ta‘siri yuqori bo‘ladi. Inson jamiyatda bunyodkorlik, yangilik va o‘zgarishlarning amalga oshiruvchisi, ya‘ni subyekti hisoblanadi. Ijtimoiy hayot sohalarini innovatsion rivojlantirish orqali, avvalo, inson farovonligi va manfaatlarini ro‘yobga chiqadi. Ijtimoiy hayotda innovatsion rivojlanish jarayonlarini insonsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Uning novatorlik faoliyati jamiyatda yangiliklar yaratishga, innovatsiyalarning paydo bo‘lishiga va pirovardida insonning o‘z farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa insonning o‘z bilimlari va yaratuvchanlik faoliyati orqali o‘z hayot farovonligiga erishish xususiyatining amaliy ko‘rinishi hamdir.

Bugungi kunda ijtimoiy innovatsiyalarga bo‘lgan talab va ehtiyojlardan kelib chiqib, ular quyidagicha tasniflanadi:

- ijtimoiy omillar qamrovi bo‘yicha: kompleks va mahalliy ijtimoiy innovatsiyalar;
- amalga oshirish davri bo‘yicha: strategik va taktik innovatsiyalar;
- tashkilotda ijtimoiy yo‘nalishni shakllantirish bo‘yicha: mehnat sharoitlari va mavjud ijtimoiy infratuzilmaga oid innovatsiyalar;
- amalga oshirish holati bo‘yicha: ichki va tashqi ijtimoiy muammolarni bartaraf etishga qaratilgan innovatsiyalar;
- amalga oshirish shakli bo‘yicha: moddiy, tashkiliy va madaniy ijtimoiy innovatsiyalar;
- ishlatilish ko‘lami bo‘yicha: alohida obyektga qaratilgan bir martalik ijtimoiy innovatsiyalar va bir qancha obyektlarga qaratilgan keng qamrovli ijtimoiy innovatsiyalar;
- maqsadi bo‘yicha: faoliyat tamoyilini yangilashga qaratilgan innovatsiyalar va yangi mahsulot faoliyatini tashkil etishga yo‘naltirilgan innovatsiyalar.

Shu ma‘noda innovatsiya jamiyat va inson takomili, ya‘ni ularning har tomonlama taraqqiyotga erishuvi, jamiyatdagi turli ijtimoiy munosabatlarning barqaror, uzviy va o‘zaro hamkorlikka asoslangan holda tashkil topishi, iqtisod, madaniyat, oila, siyosat hamda boshqaruv sohalarida rivojlanishning sifat darajasiga ko‘tarilishi kabi ilg‘or an‘analarni o‘zida aks ettiradi. Mazkur sifat ko‘rsatkichlarini amalda ro‘yobga chiqarish uchun ijtimoiy taraqqiyotga innovatsion ko‘lamdagi, ya‘ni yangiliklar yaratishga qaratilgan yondashuvlar zarur bo‘ladi. Bu jarayon jamiyatning barcha sohalariga innovatsiyalarni to‘laqonli ravishda tatbiq etish bilan uzviy bog‘liq holda ijtimoiy taraqqiyot ko‘lamini belgilovchi mezon sifatida takomillashib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ардакшин И. Инновации и инновационное развитие: социально-философский подход // Вестник Томского государственного университета. — 2017. — № 422. — С. 45.
2. Шиндина Н. Особенности инновационного развития в современном обществе: социологический аспект // Научно-методический электронный журнал «Концепт». — 2017. — № 4 (апрель).
3. Василева Е. Закономерности процесса инноваций последней четверти XX века. — М.: Экономика, 2007. — С. 5.
4. Яхшиликков Ж. Национальная идея: стратегия развития Узбекистана. — Ташкент: Чулпон, 2018. — С. 550–551.